

**O`ZBEKISTONDA KREDIT-MODUL TIZIMINING O`ZIGA XOS JIHATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10077726>

**Sh.Sh.Oblokulo**

*Buxoro davlat tibbiyot instituti biokimyo kafedrasida assistenti*

**Annotatsiya:** Kredit-modul tizimining oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimni yuzaga chiqarish hamda talabning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul tizimi, oliy ta'lim, ta'lim sifati, rivojlanish strategiyasi, uslubiy ta'minot.

Insoniyat qadim zamonlardan buyon atrof-muhit va narsa-hodisalarni bilishga harakat qilib keladi. Asrlar osha bilish jarayoni shakllanib, takomillashib, yangi ixtirolar qilinib, orttirilgan bilimlar to'planib, sohaviy ilmning shakllanishiga, keyingi asrlarda esa, alohida fanlarning vujudga kelishiga turtki berdi. Hozirgi kunda kishilik jamiyati bilan bevosita bog'liq juda ko'p fanlar vujudga keldiki, ulardagi bilimlarni o'zlashtirish bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi.

Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatbardoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim-tarbiya jarayonida eng dolzarb masala va vazifalardan biri yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tadbiiq etish orqali yetuk mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Ta'lim mazmunini isloh qilib, u jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik va axborot – kommunikasion texnologiyalarni tadbiiq qilish, xorijiy tajribalarni o'rganib, tegishli xulosalar asosida ularni amaliyotga joriy etish, talabalarning dalillarga asoslangan tibbiyot fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga alohida e'tibor berilgan. Agar bu vazifa amalga oshirilmagan ekan, ta'lim – tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal qilinmay qoladi.

Kredit-modul tizimining oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimni yuzaga chiqarish hamda talabning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko'hna qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtida amaliyotga joriy etilgan.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan ob'yekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda –maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni xosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baxolash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovasion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba- talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol metodlar, innovasion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni butun mashg'ulot davomida talabalarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talabalarni o'quv yoki o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Bugungi kunda barcha sohalardagi axborotlarning shiddat bilan kirib kelishi oliy ta'lim muassasalarida innovasion jarayonlarni tizimli boshqarishni yo'lga qo'yishni talab etmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim tizimining raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdagi rolini oshirish ko'p jihatdan mazkur ta'lim muassasalaridagi innovasion jarayonlarni tizimli boshqarishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki innovasion jarayonlarni tizimli boshqarish oliy ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlash va yuqori salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashning muhim omilidir.

Oliy ta'lim tizimida mavjud yoki yangi ehtiyojlarni qondirish uchun yangiliklarni yaratish, joriy etish, o'zlashtirish va foydalanishga doir faoliyat innovasion jarayondir. Mazkur faoliyatning oliy ta'lim tizimida maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlarga olib keluvchi tashkiliy shakli yangiliklar kiritishdir.

Yurtimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jahon andozalari darajasida bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, mas'uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchi, yangilikka intiluvchi iste'dodli yoshlar, yuksak malakali mutaxassislar yetkazish, oliy ta'lim tizimida yetuk mutaxassislarni tayyorlash maqsadida mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish asosida tashkil etish o'ta muhim shuningdek dolzarb masaladir.

Zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish uchun, o'qitish jarayoniga interfaol ta'lim usullari qo'llab, zamonaviy vositalar majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy – metodik jihatdan asoslash lozim bo'ladi.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida talabalarning bilimi, kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida OTMlarda dars jarayonlarini shaffof, maqsadli va reja asosida tashkil etishga erishish, kredit modul tizimini tadbiq etish orqali talabalar mobilligini ta'minlash, innovasion ta'lim texnologiyalari, axborot texnologiyalari va dalillarga asoslangan tibbiyot usullardan foydalanib, dars jarayonini faolligini oshirish, oliy ta'lim muassasi oldida turgan dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Shu sabab ham, bugungi kunda ta'lim tizimimizda innovasion pedagogik texnologiyalar faol qo'llanilib kelinmoqda, ayni vaqtda bu o'quv jarayonning yangicha ruhda shakllanishiga keng imkoniyat yaratib bermoqda.

Kredit-modul tizimi dunyoning ilg'or mamlakatlari oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan tizimdir. Ushbu ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv jarayonida asosiy e'tibor talabalarning mustaqil ishlashiga qaratilganligidir. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quv-uslubiy ta'minotini shakllantirish va takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega. Ushbu bitiruv ishida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazoratini amalga oshirish, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha takliflar berilgan. Kredit-modul tizimi joriy etilgan ilg'or xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari tajribasini, shuningdek Respublikamizdagi kredit-modul tizimida faoliyat olib borayotgan universitetlar faoliyatini o'rganib, ularning yutuqlarini Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida ta'limni kredit-modul tizimida olib borish jarayonlarida qo'llash, o'ziga xos kamchiliklarini aniqlash hamda tegishli takliflar berishni nazarda tutadi.

O'zbekiston ta'lim jarayonida kredit-modul tizimini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha manbalarda keltirilgan, normativ-huquqiy hujjatlar va ilg'or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili. Hozirgi kunda kredit modul tizimi bo'yicha faoliyat olib borayotgan jahondagi eng ilg'or oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonlarini organish, respublikamiz oliy tibbiy ta'limiga joriy etishdagi muammo va kamchiliklarini ochib berish kerak.

Hozirgi kunda kredit modul tizimi bo'yicha faoliyat olib borayotgan jahondagi eng ilg'or oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonlarini organish, kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlarini ishlab chiqish, kredit modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini tayyorlash tamoyillarini yaratish, kredit modul tizimi asosida ta'lim natijalarini baholash usullarini o'rganish, eng asosiy jihatlar hisoblanadi.

2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi asosida OTM/fakultet/kafedra rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

#### ADABIYOT:

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-JILD / Sh.M. Mirziyoev. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 592 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-JILD / Sh.M. Mirziyoev. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-JILD / Sh.M. Mirziyoev. – T.: "O'zbekiston", 2018. – 592 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
6. yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5544-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" gi PF-5789-sonli Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli Farmoni.

10. Mamatqulov B.M., Avezova G.S. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyoti. Darslik. Navro'z nashriyoti. 2019 y. 301b.

11. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.-T.: TDPU, 2013. – 256 b.

12. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

13. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

14. Oblokulov Shavkat Shaimovich. (2022). Drugs Run In The Body Effects On Biochemical Processes. Texas Journal of Medical Science, 8, 63–65. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/1677>

15. Oblokulov Shavkat Shayimovich. (2022). HARM OF SYNTHETIC AND NARCOTIC SUBSTANCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 509–511. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/1068>

16. Облокулов, Ш. Ш. (2022). ЦИСТАНХЕ (CISTANCHE) ЎСИМЛИГИНИНГ ДОРИВОР ХУСУСИЯТЛАРИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 199-201. <http://bestpublication.org/index.php/ozf/issue/view/13>

17. Shaimovich O. S. DRUGS RUN IN THE BODY EFFECTS ON BIOCHEMICAL PROCESSES AND HARM OF SYNTHETIC AND NARCOTIC SUBSTANCES //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 1. – №. 12. – С. 888-890.

18. Shaimovich, OblokulovShavkat. "DRUGS RUN IN THE BODY EFFECTS ON BIOCHEMICAL PROCESSES AND HARM OF SYNTHETIC AND NARCOTIC SUBSTANCES." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 1.12 (2022): 888-890.

19. Shaimovich, O. S. (2022). DRUGS RUN IN THE BODY EFFECTS ON BIOCHEMICAL PROCESSES AND HARM OF SYNTHETIC AND NARCOTIC SUBSTANCES. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 888-890.

20. Oblokulov, S. S. (2023). THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 2062-2065.

21. Ш.Ш.Облокулов. (2023). КРОТОН АЛЬДЕГИД МАВЖУДЛИГИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(13), 178–192. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/11483>

22. Ш.Ш.Облокулов 2023. КРОТОН АЛЬДЕГИД МАВЖУДЛИГИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке. 2, 13 (сен. 2023), 178–192.

12. Oblokulov S. S. THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 624-626.

23. Oblokulov, Sh Sh. "THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.15 (2023): 624-626.

24. Oblokulov, S. S. (2023). THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 624-626.

25. Облокулов, Ш. Ш. (2023). КРОТОН АЛЬДЕГИД МАВЖУДЛИГИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(13), 178-192.

26. Облокулов, Ш. Ш. (2022). ПСИХОАКТИВНЫЕ ВЕЩЕСТВА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОРГАНИЗМ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(3), 1-4.

27. Облокулов, Ш. Ш. (2023). ГИЁҲВАНДЛИК-ХАВФЛИ ИЛЛАТ. PEDAGOG, 6(10), 198-213.

28. Облокулов Ш. Ш. ГИЁҲВАНДЛИК-ХАВФЛИ ИЛЛАТ //PEDAGOG. – 2023. – Т. 6. – №. 10. – С. 198-213.

29. Облокулов, Ш. Ш. "ГИЁҲВАНДЛИК-ХАВФЛИ ИЛЛАТ." PEDAGOG 6.10 (2023): 198-213.

30. Oblokulov, S. S. (2023). THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 624-626.

31. Oblokulov, Sh Sh. "THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.15 (2023): 624-626.

32. Oblokulov, S. S. (2023). THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 2062-2065.

33. Oblokulov, Sh Sh. "THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY." Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities 11.5 (2023): 2062-2065.

34. Oblokulov, S. S. (2023). THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 624-626.

35. Облокулов, Ш. Ш. (2022). ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИДА КРОТОН АЛЬДЕГИД МАВЖУДЛИГИНИ АНИҚЛАШ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 272-275.